O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ORIENTAL UNIVERSITETI

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ORIENTAL UNIVERSITY

BUYRUQ № 30

2023-yil 3-iyul

Toshkent shahri

Universitet tashkiliy tuzilmasi va shtat jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Oriental universiteti kengashi yig‘ilishining 2023-yil 3-iyuldagi 12-sonli bayonnomasi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oriental universiteti Kengashi yig‘ilishining 2023-yil 3-iyuldagi 12-sonli bayoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oriental universiteti tashkiliy tuzilmasida quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirilsin:

- ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilot (uning alohida bo‘linmasi) shtatining o‘zgarganligi bois “Jismoniy tarbiya” fakulteti va “Jismoniy tarbiya” kafedralari tugatilsin;
- Ta’lim sifatini boshqarish bo‘limi (yangi) tashkil etilib, tashkiliy tuzilma tarkibiga kiritilsin.
- Shuningdek, “Pedagogika” fakulteti qayta tashkil etilib, uning negizida “Pedagogika va psixologiya” hamda “Boshlang‘ich ta’lim va sport” fakultetlari;
- “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi qayta tashkil etilib, uning negizida “Boshlang‘ich ta’lim va sport” kafedrasi;
- O‘quv-uslubiy bo‘limi qayta tashkil etilib, negizida Akademik faoliyatni boshqarish boshqarmasi;
- Talabalar bo‘limi qayta tashkil etilib, negizida,Talabalar harakati monitoringi bo‘limi;
- Marketing, buyurtmachilar portfelini shakllantirish bitiruvchilarni ishga taqsimlash va monitoring bo‘limi qayta tashkil etilib, negizida, Shartnomalarni rasmiylashtirish va marketing bo‘limi;
- Ilmiy bo‘limi qayta tashkil etilib, negizida Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo‘limi;
- Xodimlar bo‘limi qayta tashkil etilib, negizida Inson resurslarini boshqarish bo‘limi;
-“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi qayta tashkil etilib, negizida “Tarix” kafedrasi tashkil etilsin;
- “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti qoshida “Aniq fanlar” kafedrasi (yangi) tashkil etilsin.

Yuqoridagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda Universitetning tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Universitetning shtat jadvalida tegishlicha o‘zgarishlar amalga oshirilsin:

-“Pedagogika” fakulteti o‘rniga alohida-alohida tarkibiy bo‘linmalar sifatida “Pedagogika va psixologiya” va “Boshlang‘ich ta’lim va sport” fakultetlari kiritilsin.

Shu bilan birga:

-“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘rniga “Boshlang‘ich ta’lim va sport” kafedrasi;

-“O‘quv” bo‘limi o‘rniga “Akademik faoliyatni boshqarish” boshqarmasi;

-“Talabalar” bo‘limi o‘rniga - “Talabalar harakati monitoringi” bo‘limi;

-"Marketing, buyurtmachilar portfelini shakllantirish bitiruvchilarni ishga taqsimlash va monitoring" bo'limi o'rniga "Shartnomalarni rasmiylashtirish va marketing" bo'limi;

-"Ilmiy" bo'lim o'rniga - "Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar" bo'limi;

-"Xodimlar" bo'limi o'rniga "Inson resurslarini boshqarish" bo'limi;

-"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'rniga "Tarix" kafedrasi;

- O'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimi o'rniga Akademik faoliyat bo'yicha prorektor lavozimi;

- Ilmiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi o'rniga Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor lavozimi;

- Iqtisodiyot va turizm fakulteti yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimi o'rniga dekan o'rinbosari lavozimi;

- Tarix fakulteti yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimi o'rniga dekan o'rinbosari lavozimi deb 2023-yil 3-iyuldan o'zgartirilsin.

Shuningdek, tugatilgan "Jismoniy tarbiya" fakulteti va "Jismoniy tarbiya" kafedralari chiqarilib, yangi tashkil etilgan "Ta'lim sifatini boshqarish" bo'limi va "Aniq fanlar" kafedrasi shtat jadvaliga kiritilsin.

4. Universitetning yangi va qayta tashkil etilgan bo'linmalari shtat birliklari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor va (F.Quvondiqov) va Inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig'i (S.Ibragimova):

- uch kun davomida yangi fakultetlar va bo'limlar tashkil etilishi munosabati bilan qisqarayotgan shtatlarda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va xodimlarning ta'lim yo'nalishi, mutaxassisligi va ixtisosligi yangi tashkil etilgan fakultetlar va bo'limlardagi lavozimlar uchun belgilangan malaka talablariga mos kelgan taqdirda, mehnat qonunchiligida belgilangan tartibga rioya etgan holda, ularni yangi tashkil etilgan lavozimlarga o'tkazish bo'yicha taklif kiritsin;

- shuningdek, yangi tashkil etilgan fakultetlar va bo'limlardagi lavozimlarni malakali va tashabbuskor professor-o'qituvchilar va xodimlar bilan to'ldirish maqsadida mazkur lavozimlarga nomzodlarni konkurs asosida ishga qabul qilish uchun taqdim etish choralarini ko'rsin;

- bir hafta muddatda yangi lavozimlar uchun belgilangan vazifalar va funksiyalardan kelib chiqib, ularning lavozim yo'riqnomasini hamda yangi tashkil etilgan fakultetlar va bo'limlarning nizomlarini hamda 2023-yil uchun tuzilgan Ish rejalarini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin.

- Universitetning barcha bo'linmalari xodimlari va professor-o'qituvchilari ushbu buyruq bilan tanishtirilsin.

4. Bosh hisobchi (M.Shaisakova):

-mazkur buyruq imzolangan kundan boshlab uning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan shtatlar jadvalini ish haqi va boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun buxgalteriyaning ish yurituviga asos sifatida qabul qilsin;

-shtatlar jadvaliga asosan yangi tashkil etilgan fakultetlar va bo'limlardagi lavozimlar uchun belgilangan ish haqi to'lab borilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: Oriental universiteti kengashi yig'ilishining 2023-yil 3-iyuldagi 12-sonli bayonnomasi qarori.

Rektor **M. Axmedov**

Kiritdi:

S.Ibragimova

Kelishildi:

A.Iminoxunov

M.Axmedov

F.Quvondiqov

I.Yuldashov

D.Nazarova

R.Jakbarov

D.Norqo‘ziyev

S.Ibragimova

M.Shaisakova

E.Axatov

K.Tuxtabekov

N.Ubaydullayeva

T.Sadiqov

M.Dadaxodjayeva

N.Xudayberdiyev


R.Abdukadirov

X.Yusupova

M.Koraboyev

B.Tolibov

"TASDIQLAYMAN"
Oriental universiteti rektori
M. Axmedov
2023-yil "03" 07.



TA`SISCHILAR UMUMIY YIG`ILISHI

Universitet kengashi — **REKTOR** — **Kuzatuv kengashi**

Rektor maslahatchilari

- Akademik faoliyat bo'yicha prorektor
  - Akademik faoliyatni boshqarish boshqarmasi
  - Ta`lim sifatini boshqarish bo`limi
  - Talabalar harakati monitoringi bo`limi
- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
  - Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'limi
  - Xalqaro hamkorlik bo'limi
  - Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti
  - Axborot texnologiyalar markazi
- Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
  - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
  - Psixolog
  - Axborot-resurs markazi
  - Xotin-qizlar kengashi
  - Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash bo‘limi
  - Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti
- Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
  - Shartnomalar va marketing bo'limi
  - Fuqaro va mehnat muhofazasi bo`limi
  - Buxgalteriya
  - Xo'jalik bo'limi
  - Matbaa va nashriyot bo‘limi
- Inson resurslarini boshqarish bo'limi (Xodimlar bo‘limi)
  - Devonxona va arxiv
  - Matbuot kotibi
  - Monitoring va ichki nazorat bo'limi
  - Bosh Yuriskonsult
  - Kengash kotibi
  - Rektor yordamchisi

- Tarix fakulteti
  - Tarix kafedrasi
- Pedagogika va psixologiya fakulteti
  - Pedagogika va psixologiya kafedrasi
- Boshlangich ta`lim va sport fakulteti
  - Boshlangich ta`lim va sport kafedrasi
- Iqtisodiyot va turizm fakulteti
  - Iqtisodiyot va turizm kafedrasi
  - Aniq fanlar kafedrasi
- Filologiya fakulteti
  - Sharq tillari kafedrasi
  - G‘arb tillari kafedrasi
- Magistratura fakulteti
  - Uzluksiz ta`lim kafedrasi

ORIENTAL UNIVERSITETI KENGASHINING 12- SONLI YIG'ILISH BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

2023-yil 3-iyul Toshkent shahri

Rais: M.Axmedov
Kotiba: D. Nurmuxamedova
Qatnashdilar: Kengashning 45 nafaridan 31 nafari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

4. Universitet oldida turgan strategik vazifalar va universitetning yangilangan tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash masalasi.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi ushu masala bo'yicha 1-prorektor A. Iminoxunov sozga chiqdi va yangilanayotgan tarkibiy tuzilma loyihasi bilan yig'ilish ishtirokchilarini tanishtirib o'tdi.

Kengash ishtirokchilari tomonidan strategik vazifalar, universitetning yangilanayotgan tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash masalasi muhokama etildi. Tarkibiy tuzilmani tasdiqlash bo'yicha universitet ta'sischilari va yig'ilish ishtirokchilari tomonidan qo'shimcha fikrlar hamda takliflar bildirib o'tildi. Mazkur masala yuzasidan takliflar inobatga olingach kun tartibidagi masala yuzasidan kelib chiqib, universitet Kengashida

QAROR QILINDI:

1. 1-prorektor A. Iminoxunovning kun tartibidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetning yangilanayotgan tarkibiy tuzilmasiga taklif etilgan qo'shimcha bo'limlar qo'shilsin hamda ilmiy maslahatchilar alohidalangan xolda aniq nomlar bilan ko'rsatilsin (rektorning Ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha maslahatchisi, rektorning Ilmiy ishlar bo'yicha maslahatchisi).

3. Universitetning yangilanayotgan tarkibiy tuzilmasi asosida ish faoliyatini yo'lga qoyish va xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi Xodimlar bo'limi boshlig'i S.Ibragimova hamda B.Tolibov zimmasiga yuklatilsin.

4. Universitetda strategik rivojlantirish va O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishchi guruh tuzilsin va unga rais etib M.Axmedov tayinlansin.

Kengash kotibi «ORIENTAL UNIVERSITETI» MChJ ASLIGA TO'G'RI ORIENTAL UNIVERSITETI KENGASHI IMZO SANA D.Nurmuxamedova